

O`ZBEK KOMEDIYALARIDA KOMIK QAHRAMON

Jo`rayev Murodulla
Jizzax DPI o`zbek adabiyoti o`qitish
metodikasi kafedراسi katta o`qituvchisi

Sharof Boshbekovning “Temir xotin” komediyasi ham o`zining hayotiyligi hamda badiiy tomondan pishiqligi bilan Abdulla Qahhorning “Tobutdan tovush” asari kabi adabiyotimizda o`ziga xos ahamiyatga ega. To`g`ri, bu ikki asar yaratilgan davr nuqtai nazaridan bir-biridan farqlanadi. Lekin, biz uchun bu narsa muhim emas. Asosiysi, bu ikki asarda o`zbek komediyasining janr tabiatidagi eng muhim mezon hamda tamoyillarning mujassam bo`lganligidir. Darhaqiqat, har bir muhit, har bir davr o`zining siyosiy-iqtisodiy, ma`naviy-axloqiy hamda mafkuraviy tartib-qoidalari bilan ma`lum bir ma`noda badiiy tafakkur rivojiga ham uning ta`sirini o`tkazishi tabiiy. Bu o`zaro ta`sir muayyan darajada yaratilajak badiiy asarlarning mazmuniy hamda shakliy xossalari uni namoyon etadi.

Xuddi shu ma`noda, o`zbek komediyalarining janr xususiyatlarida ham yillar o`tishi bilan o`ziga xos jihatlar yuzaga keladiki, bu masalani ushbu janrning eng sara namunalari misolida tadqiq etish maqsadga muvofiqdir. Haqiqatan ham, “Tobutdan tovush” hamda “Temir xotin” komediyalari yaratilgan davridan bugungi kungacha o`zining badiiy-estetik qimmatini yo`qotgani yo`q. Mazkur ikki asar ijodkorning g`oyaviy-badiiy niyati, janriy-uslubiy hamda tasvir ob`yekti jihatlaridan olib qaralganda bir qancha tafovutlarga egaligi ko`zga tashlanadi. Jumladan “Tobutdan tovush” satirik komediya, “Temir xotin” esa yumoristik ruhdagi asar hisoblanadi. Lekin bu ikki komediya ham o`zbek komediyana visligining eng sara namunalari sifatida biz uchun qadrli. Komediylardagi Suxsurov ham, Qo`chqor ham o`ziga xos komik xarakterdagi qahramonlar hisoblanadi. Ular asar voqealarini harakatga keltirishda yetakchi kuch bo`lishlari barobarida, komik vaziyatlarni yuzaga keltirishda ham asosiy vosita vazifasini o`taydi. Suxsurov o`zining o`ta pastkashligi, ahmoqligi hamda voqyelikka to`g`ri baho bera olmasligi bilan o`quvchi-tomoshabinda kulgi uyg`otsa, Qo`chqor esa haddan tashqari soddaligi va o`ta ishonuvchanligi bilan bizni o`ziga jalb etadi. A.Qahhor Suxsurov xarakteridagi yulg`ichlik, pastkashlik

hamda tubanlik kabi illatlarni to'laqonli fosh etish maqsadida asarga Qori, Netayxon singari obrazlarni kiritib, bosh qahramonning asl basharasini hamda u yashayotgan muhitning nobopligini ko'rsatib beradi. Muallif bu jarayonda achchiq, kinoyali kulgidan unumli foydalanadi. Suxsurov kabi nusxalar jamiyatimiz uchun zararli ekanligini ta'kidlashga harakat qiladi. Qo'chqor xarakterini ochishda esa Sh. Boshbekov o'zgacha yo'ldan boradi. Muallif Qo'chqordagi ayrim qusurlar uchun uni keskin qoralamaydi, balki beozorgina chimdib o'tadi. Qahramondagi bu kamchiliklarning asosiy sababchisi u yashayotgan davrning siyosiy tuzumi ekanligiga ishora qiladi. Qo'chqorning xatti-harakatlari kulgili, yashash tarzi esa achinarli. U har bir voqea-hodisani qanday bo'lsa shundayligicha qabul qiladi. Tahlil qilish, o'ylab ko'rish uning tabiatiga xos bo'lmagan xususiyatlardir. Xuddi shu soddalik uning xarakteridagi komiklikni keltirib chiqaradi. Lekin u o'zining bunday xarakterini anglab yetmaydi, shuning uchun ham Qo'chqorning xatti-harakatlari bizga kulgili ko'rinadi. Komediya-dagi e'tiborga sazovor obrazlardan biri bu — Alomatxonidir. To'g'ri, u insonga xos to'laqonli xarakter xususiyatlariga ega emas. Lekin Qo'chqor xarakterini, u yashayotgan davr ziddiyatlarini ko'rsatishda Alomatxon obrazi yetakchi vosita sanaladi. Qo'chqor Suxsurov kabi poraxo'r, pastkash inson emas. U birovlarining haqiga xiyonat qilish, o'zgalarning yaxshi yashashiga xasad bilan qarash nima ekanligini bilmaydi. Suxsurov timsolida biz inson tabiatining murakkabligini, inson xarakterini qayta tarbiyalash naqadar mushkul ish ekanligini yana bir bor chuqur his etsak, Qo'chqor tabiatidagi ishonuvchanlik hamda soddalikni ko'rganda esa, hayratga tushishimiz tabiiy.

Suxsurov xudbin, u ham hamisha o'zim bo'lay deydi, doimo shuhratga intiladi. Qo'chqor xarakteridagi evolyutsiyani ochishda esa muallif Sh. Boshbekov asosan, uning ongiga muhitning ko'rsatgan ta'sirini ta'kidlash, siyosiy tuzum ta'sirida uning dunyoqarashida yuz bergan ichki jarayonlarni ko'rsatib boradi. Suxsurovga esa ijobiy muhit ta'sir qilmaydi. U o'ziga-o'zi poraxo'rlar muhitini yaratishga harakat qiladi. Suxsurov tabiatidagi bu kabi illatlar boshqalarning qarshiligiga ham uchraydi.